- "bankrotlik uchun juda katta", deb tasniflanuvchi institutlarning muammosi. Davlat rivoji uchun katta hissa qo'shishi kutilayotgan moliyaviy muassasalarning inqirozga yaqinlashib qolishi orqali imtiyozlar tizimini izdan chiqarib yuborishi mumkin. Strategik jihat muhim bo'lgan bu institutlarni davlat tomonidan imtiyozlar asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi ikki tomonlama xavf yuzaga keltiradi. Bu birinchidan, davlat tushumlarining kamayishi va ikkinchidan, kichikroq korxonalariga berilishi kerak bo'lgan imtiyozlarning "bankrotlik uchun juda katta" korxonalariga yo'naltirilishi.
- "pufak" derivativlar inqirozning kelib chiqishi va keng tarqalishiga asosiy omil sifatida qaradi. Hech qanday aktiv bilan qoplanmagan hosilaviy qimmatli qog'ozlarga kata hajmdagi investitsiyalarning yo'naltirilishi natijasida real iqtisodiyot ba barqarorlik uchun pul oqimining kamayishiga ta'sir ko'rsatadi.
- yuqori riskli qarzlarga asoslangan qimmatli qog'ozlar. Jahon moliyaviy inqirozning ikkinchi "xalqasi" va yuzaga kelishining bosh omili hisoblanuvchi bu turdagi qimmatli qog'ozlardan daromad olish uchun CDO shaklidagi obligatsiyalar emissiya qilingan. SHuningdek ularning sug'urtalanishi va o'z darajasidan asossiz yuqori reyting bilan baholanishi inqirozning kattalashishiga ta'sir etgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliya tizimini yanada takomillashtirish va jahon moliyaviy inqirozda namoyon bo'lgan muammoli jihatlarni bartaraf etishda islom moliyasi, xulq-atvor moliyasi, sherikchilik moliyasi va boshqa shu kabi ilg'or yondashuvlar asosida tavsiya etilayotgan alternativ moliya tizimlarini o'rganish jarayoni dolzarb bo'lib qoldi. Islom moliyasi institutlarining 2008-yilda boshlangan moliyaviy inqirozdan kam ta'sir bilan chiqishi va rivojlanish ko'rsatkichlarini saqlab qolganligi jahon hamjamiyatining e'tiborini tortdi. Keyinchalik o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarda islom moliyasi moliyaviy inqirozlarga bardoshli ekanligi ta'kidlab kelinadi.

Dunyo ilm-fan sohasida islom moliyasiga nisbatan yangi yo'nalish sifatida qaralsa ham yetarlicha tadqiqotlar qilingan. Moliyaviy inqirozlarga berdoshlilik darajasining yuqoriroq ekanligi islom moliyasining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu haqida birinchilardan bo'lib Muhammad Umar Chapra o'z izlanishlarida keltirib o'tgan¹. Uning maqolasida moliya tizimida bozor intizomining yetarli emasligi, haddan tashqari kreditlash, yuqori leveraj darajasi oxir-oqibat inqirozga olib kelishi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, tavakkalchilikni taqsimlash, birinchi navbatda real tovar va xizmatlarni sotib olish uchun kreditlash hamda qarzni sotishni cheklash, keyin qisqa muddatli savdolar, haddan tashqari noaniqlik (g'arar) va qimor (maysir) intizomni kuchaytirishga yordam berishi mumkinligi tilga olingan. Natijada moliyaviy beqarorlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Mazkur omillarining barchasi islom moliyasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

G. Joselin va Ch. Labidi tadqiqotlaridaglobal miqyosda islom moliyasi o'sish tendensiyasida ekanligi yoritilgan². Tahlil natijalariga ko'ra jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozida islom moliyasi institutlari an'anaviy moliya institutlariga nisbatan sezilarli darajada bardoshlilikni aniqlandi. Maqolada islom banklari, islom investitsion fondlar va islom moliyasida risklarni boshqarishga oid joriy holat tadqiq qilingan. Islom moliyasining yillik 15–20 foiz o'sishiga alohida urg'u berilgan.

Iqtisodchi olimlar N. Barberis va R. Thalerning³ fikriga ko'ra xulq-atvor moliyasi asosan ma'lum bir moliyaviy hodisalarni ba'zi agentlar to'liq oqilona bo'lmagan modellar yordamida amalga oshirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, bu sohada ikkita blok mavjud bo'lib, ulardan birinchisi arbitraj cheklavlari, ikkinchisi esa psixologiya hisoblanadi. Arbitraj cheklavlari treyderlar oqilona yo'l hisoblanib yuzaga kelgan dislokatsiyalarni bartaraf etishda yordam bersa, psixologiya orqali biz ko'rishimiz mumkin bo'lgan to'liq ratsionallikdan og'ish turlarini kataloglaydi. Ushbu ikki blok jami fond bozori, o'rta daromadlar kesimi, individual savdo korporativ moliyada muhim ahamiyat kasb etadi deb ta'kidlashgan.

1 Chapra, M. U. (2009). The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help Minimise the Severity and Frequency of Such a Crisis in Future. *ICR Journal*, 1(2), 226–245. <https://doi.org/10.52282/icr.v1i2.745>

2 Grira, J., & Labidi, C. (2021). Banks, Funds, and risks in islamic finance: Literature & future research avenues. *Finance Research Letters*, 41, 101815. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101815>

3 Barberis, N., & Thaler, R. (2003). A survey of behavioral finance. *Handbook of the Economics of Finance*, 1, 1053–1128.



Iqtisodchi olim D. Hirshleiferning⁴ fikriga qaraganda, alternativ moliya tizimida xulq-atvor moliyasining asosiy jihatlaridan biri bu psixologiyani moliyalashtirishda qo'llashning ahamiyatini o'rganadi, bunda asosan individual darajadagi kognitiv moyilliklarga e'tibor beriladi. Shu bilan birga, olim o'z tadqiqotlarida hukm va qarorlarning noto'g'riligi manbalarini, ular savdo va bozor narxlariga qanday ta'sir qilishini, tajribali va tajribasi nisbatan kamroq bo'lgan investorlar o'rtasidagi arbitrajning roli va boylik oqimini, shuningdek, korxonalarining samarasiz narxlardan qanday foydalanishi va noto'g'ri baholashni qo'zg'atishi bilan bir qatorda boshqaruv qarorlarining oqibatlarini ham chuqur o'rgangan holda tahlil etgan. Uning fikriga ko'ra, xulq-atvor moliyasidan chetga chiqib, ijtimoiy o'zaro munosabatlarning tuzilishi, moliyaviy g'oyalar qanday tarqalishi va rivojlanishi va ijtimoiy jarayonlarning moliyaviy natijalarga qanday ta'sir qilishini o'rganuvchi alternativ moliyaga o'tish eng samarali yo'l ekanligi ta'kidlangan.

Amerika iqtisodchi olimlaridan J. R. Ritterning⁵ tadqiqotlariga ko'ra, xulq-atvor moliyasi samarali bozorlarda oqilona investorlar bilan kutilayotgan foydani maksimal darajada oshirish haqidagi an'anaviy taxminlarni rad etishi bilan ahamiyatlidir. Olimning ta'kidlashicha, xulq-atvorni moliyalashtirishning ikkita asosiy bloki mavjud bo'lib, kognitiv psixologiya (odamlar qanday fikrda) va arbitraj chegaralari (bozorlar samarasiz bo'lganda) hisoblanadi va xulq-atvorni moliyalashtirish bo'yicha tadqiqotlarning o'sishi an'anaviy tizimning ko'plab empirik namunalarini yaratishga va alternativ moliyalashtirishdan ko'proq foylanishga undaydi.

Yana bir iqtisodchi olim M. Statmanning⁶ tadqiqotlariga ko'ra zamonaviy portfel nazariyasi sifatida ham tanilgan standart moliya to'rtta poydevor blokiga ega bo'lib, birinchisi oqil investorlar; ikkinchisi samarali bozorlar; uchinchi investorlar o'z portfellarini o'rtacha-variant portfel nazariyasi qoidalariga muvofiq loyihalashlari va haqiqatda shunday qilishlari kerak; va to'rtinchisi kutilayotgan daromad faqat risk va riskning funksiyasi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, olimning fikriga ko'ra xulq-atvor moliyasi standart moliyaning har bir asosiy bloki uchun muqobil blokni taklif qiladi. Xulq-atvor moliyasiga ko'ra, investorlar oqil emas, balki "normal", ya'ni bozorlarni mag'lub etish qiyin bo'lsa ham samarali natijaga ega emas. Investorlar portfellarini o'rtacha farqli portfel nazariyasi emas, balki kichik variatsiya portfel nazariyasi qoidalariga muvofiq ishlab chiqadilar.

ASOSIY QISM

Iqtisodiy o'ziga xoslik va moliyaviy innovatsiyalar bilan ajralib turadigan islom moliyasi tushunchasi axloqiy qadriyatlar va global ahamiyatga ega bo'lgan tizim sifatida rivojlandi. Shariat tamoyillariga asoslangan islom moliyasi moliyaviy faoliyatni axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat va barqarorlik bilan bog'laydigan muqobil asosni taqdim etadi. Musulmonlar ko'p istiqomat qiladigan davlatlar zaruriy moliyaviy tashabbus sifatida boshlangan bu jarayon madaniy, diniy va geografik chegaralarni kesib o'tuvchi dinamik va ko'p qirrali global industriyaga aylandi.

Islom moliyasining asosi shariat qonunlariga tayanish, xulq-atvor, adolat va ijtimoiy mas'uliyatga rioya qilish kabi yondashuvlardan iborat. Ushbu axloqiy qadriyatlar ribo, g'arar va maysir kabi amaliyotlardan voz kechishga qaratilgan. Bunda kelishuv va shartnomalar o'zida moddiy aktivlar bilan ta'minlanishi, tenglik va adolat tamoyillari mavjud bo'lgan moliyaviy faoliyatni talab etadi. Islom moliyasi tamoyillari uni an'anaviy moliyadan ajratibgina qolmay, uning iqtisodiy muvozanatni ta'minlash va jamiyat farovonligini oshirishga yo'naltirilgan maqsadlarini ham ko'zda tutadi.

Islom moliyasi – islom tamoyil va qoidalariga to'liq mos keluvchi moliyaviy instrumentlarni va qonuniyatlar o'z ichiga olgan tizim. Islom moliyasiga nisbatan XXI asrda qiziqish sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Ilmiy izlanishlar olib borish va tahliliy materiallar tayyorlash borasidagi ilmiy faoliyat keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

Konsalting va audit xizmatlarini ko'rsatuvchi xalqaro yirik tarmoq kompaniyasi hisoblangan "Deloyt" (Deloitte Touche Tohmatsu Limited) ta'rifi ko'ra islom moliya tizimi o'ziga xos aralash iqtisodiy tizim bo'lib, unda moliyaviy tranzaksiyalar adolat, foyda va zararga sheriklik hamda haqiqiy transaksiyalarga⁷ asoslangan axloqiy me'yorlar va islom huquqi (shariat)ga mutanosib ravishda amalga oshiriladi⁸.

Islom kapital bozori islom moliyasining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra islom moliyasining fundamental asosi uning barcha tarkibiy qismlariga birdek taalluqli hisoblanadi. Islom kapital bozorining fundamental va konseptual jihatdan bosh va yagona asosi shariat hisoblanadi. Tizimdagi qolgan barcha munosabatlar shariat ko'rsatmalaridan kelib chiqqan holda tartibga solinib boriladi.

Shariat tamoyillariga asoslangan moliya konsepsiyasi egalik huquqi, ijtimoiy va iqtisodiy adolat, daromadlarning taqsimlanishi va boshqaruvga taalluqli islomning asosiy tamoyillari asosida qurilgan.

4 Hirshleifer, D. (2015). Behavioral finance. Annual Review of Financial Economics, 7, 133–159.

5 Ritter, J. R. (2003). Behavioral finance. Pacific-Basin finance journal, 11(4), 429–437.

6 Statman, M. (2008). What is behavioral finance. Handbook of finance, 2(9), 79–84.

7 Muallif izohi: amalga oshgan yoki amalga oshishi aniq bo'lgan

8 <https://www2.deloitte.com/lu/en/pages/islamic-finance/articles/principles-islamic-finance.html>



Olimlar tomonidan moliyaviy faoliyatning islomiy andozasiga xos bo'lgan quyidagi muhim tamoyillarini ajratib ko'rsatiladi:

- foyda va zararni taqsimlash o'zaro sheriklar o'rtasida (mushoraka bitimi), investor va tadbirkor o'rtasida shakllanadigan investitsiyaviy munosabatlarda amalga oshiriladi. Foyda amalda kelishuvga ko'ra zararlar esa shariat ko'rsatmalariga ko'ra taqsimlanadi.
- xatarni taqsimlash tadbirkorlik faoliyatining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Faoliyat davomida ro'y berishi mumkin ehtimoliy xatarlarni taqsimlab olish to'g'risida bitim tuzish zarurligini anglatadi.
- pulning o'zi kapital sifatida tan olinmasligi. Bu yerda sarmoya ishlab chiqarish faoliyatiga kiritiladi va u kapitalga aylanishi uchun egasining ham ishtirok etishi shart bo'ladi. Shundagina u voqelikda kapitalga aylanadi.
- islom moliyasida ssuda foizi undirishning man etilganligi. Investorning foyda va zararni bo'lishmay, muqarrar xatarga yo'liqmay, ssuda evaziga daromad olish taqiqlangan. Pul – faqat to'lov vositasi bo'lib sotish hisobiga daromad olinadigan tovar sifatida qabul qilinmaydi.
- islom moliyasida chayqovona amaliyotlar man etilgan, bunda biror kishining qiyinchilikka tushib qolish vaziyati singari jihatlarni o'z manfaati yo'lida ishlatish tushuniladi. Aksariyat tuziladigan bitimlar subyektlarining birini ortiqcha xatarni zimmasiga olishi yoki kazino o'yinlari kabi tasodifiy daromad olishni ifodalovchi qimor o'yinlariga aloqador hisoblanadi.

Islom moliyasi nazariy asoslari uzoq tarixga ega bo'lib, bu borada zamonamiz iqtisodchilari tomonidan ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Islom moliyasi ta'limotining an'anaviy moliyadan farqli jihati – pulga bo'lgan yondashuvda aks etadi. Islomda pul muomala, ayirboshlash vositasi, qiymat o'lchovi va jamg'arish instrumenti kabi vazifalarni bajaradi. Pulning boshqa vazifalari borasida islom iqtisodchi olimlari tomonidan turli, hatto bahsli mulohazalar ham bayon qilingan.

Islom pulni insonning mehnati mahsuli, xo'jalik ehtiyojlariga xizmat qiladigan vositachi va iqtisodiy kategoriya sifatida qaraydi. Islomda pul mustaqil qiymatga ega bo'lmagan, texnik jihatdan xizmat ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi.

Islom moliyasi bo'yicha ko'plab mutaxassislar pul va kapital o'rtasida farq mavjud deb hisoblaydilar: pul mohiyati bo'yicha ehtimoliy kapital sifatida yondashiladi. Islom moliyasida pul kapitalga o'zgarishi uchun sarmoyadarning munosabatlar jarayonida faol ishtiroki talab qilinadi, an'anaviy moliyada bo'lganidek foiz keltirib turadigan pullik munosabatlar talqini yangi qiyofani egallaydi. Bunda pul albatta investitsiya sifatida yo'naltirilib iqtisodiy jarayonda faol ishtirok etishi va kapitalga aylanishi talab etiladi.

So'nggi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyin moliya tizimidagi og'riqli nuqtalarni yechimi uchun tavsifa etilayotgan ilg'or yondashuvlar asosidagi alternativ moliya tizimlaridan yana biri sifatida xulq-atvor moliyasi namoyon bo'ladi.

Xulq-atvor moliyasining muhim jihatlaridan biri sifatida investorning xatti-harakatlari nazariyasiga nisbatan haqiqiy investor va bozor xatti-harakatlarini tushunish hamda tushuntirishga oid jarayonlar nazarda tutiladi. Shu bilan birga bu kabi g'oya investorlar va bozorlar o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi taxminlarga asoslangan an'anaviy (yoki standart) moliyadan farq qiladi. Asosan, xulq-atvorni moliyalashtirish insonlarning individual va jamoaviy qarorlarni qanday qabul qilishini ko'rsatishdan iborat hisoblanadi. Investorlar va bozorlarning o'zini qanday tutishini tushunish orqali iqtisodiy natijalarni yaxshilash uchun ushbu xatti-harakatlarni o'zgartirish yoki ushbu jarayonlarga moslashish mumkin bo'ladi. Bu esa xulq-atvor moliyasi naqadar ahamiyatligini o'zida mujassam etibgina qolmay, ko'pgina hollarda, xulq-atvor moliyasini bilish va integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi insonlar uchun yuqori natijalarga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Alternativ moliyaviy tizimlarida xulq-atvor moliyasining ahamiyati uning noan'anaviy moliyaviy muhitda yuzaga keladigan o'ziga xos muammolar va xatti-harakatlarni hal qilish qobiliyati hisoblanadi. Standart moliya nazariyasi moliyaviy savollarga matematik jihatdan oqlangan tushuntirishlar berish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular real hayotda qo'yilganda ko'pincha noaniq hisoblanib, ular noaniq sharoitlar bilan yanada murakkablashadi. Standart moliyaviy yondashuv haqiqatni haddan tashqari soddalashtiradigan bir qator taxminlarga tayanadi. Standart moliya, asosan, investorlarning o'zini qanday tutishini tavsiflovchi tamoyillarga emas, balki o'zini qanday tutishi kerakligi haqidagi qoidalarga asoslanadi. Xulq-atvorni moliyasi esa moliyaviy bozorlarda va individual investorlarda ishlayotgan insonning psixologik hodisalarini aniqlashga va ulardan o'rganishga harakat qiladi. Xulq-atvor moliyasi, standart moliya kabi oxir-oqibatda asosiy qoidalar va taxminlar bilan boshqariladi. Biroq, standart moliya o'z taxminlarini ideallashtirilgan moliyaviy xatti-harakatlarga asoslab bersa, xatti-harakatlar moliyasi o'z taxminlarini kuzatilgan moliyaviy xatti-harakatlarga orqali asoslaydi. Aytish joizki, alternativ moliyaviy tizimlar negizida an'anaviy bank va moliya institutlaridan tashqarida mavjud bo'lgan plat-



formalar, vositalar yoki tuzilmalar nazarda tutiladi. Masalan, kreditlash, kraudfanding, kriptovalyutalar va mikro-moliya kabilar shular jumlasidandir.

Alternativ moliyaviy tizimlarda xulq-atvor moliyasining qimmatli bo'lishining ba'zi asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, investorning xulq-atvorini tushunish alternativ moliyaning muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanib, bu orqali shaxslar va guruhlar muqobil moliyaviy tizimlarda qanday qaror qabul qilishini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bu ularning investitsiya tanlovi va tavakkalchilik xulq-atvoriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kognitiv tarafkashlik va hissiy omillarga oydinlik kiritadi. Bu esa, o'z navbatida foydalanuvchilarga qulayroq va investorlar uchun mos moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi muhim sabablaridan biri bo'lib axborot assimetriyasini hal qilish hisoblanadi. Bugungi kunda ko'pgina muqobil moliyaviy tizimlarda investorlar uchun ko'pincha cheklangan yoki assimetrik ma'lumotlar aks ettiriladi. Xulq-atvorni moliyalashtirish investorlar mavjud ma'lumotlarni qanday qayta ishlashlari va sharhlarlari haqida tushuncha berishi mumkin bo'lib, bu esa tizimlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan bozor anomalialarini yumshatish alternativ moliyaning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib xizmat xizmat qiladi. O'z o'rnida bozor anomaliasi deganda bu fond bozorining kutilayotgan xatti-harakatlariga zid bo'lgan narx harakati tushuniladi va anomalija berilgan taxmin yoki modelning amalda o'zini oqlay olish yoki oqmasligini isbotlaydi. Boshqacha qilib aytganda, bozor anomalialari an'anaviy moliyaviy modellar asosida kutilganidan chetga chiqadigan aktivlar bahosi yoki savdo faoliyatidagi doimiy o'zgarishlar va xatti-harakatlarni anglatadi.

Hozirda alternativ moliyaviy tizimlar an'anaviy moliya nazariyalari bilan to'liq tushuntirib bo'lmaydigan noyob bozor anomalialarini ko'rsatishi mumkin. Bunda xulq-atvor moliyasi ushbu anomalialarni aniqlashi va tushuntirishi mumkin bo'lib, shu bilan birga ularni qanday hal qilish va yanada barqaror va samarali tizimlarni yaratish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

Aytish joizki, bozor anomalialarini yumshatish samarali va barqaror moliyaviy bozorlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga kasb etadi. Shu bilan bira qatorda bu kabi anomalialar bozor samarasizligiga, aktivlarning noto'g'ri baholanishiga va investorlar uchun potentsial risklarga olib kelishi mumkin. Bozor anomalialarini yumshatish sifatida bir qancha strategiyalar mavjud bo'lib quyidagilar shular jumlasidandir:

Birinchidan, moliyaviy inklyuzivlikni rag'batlantirish muhim strategiyalardan biri bo'lib, xulq-atvorni moliyalashtirish, kam ta'minlangan va kam ta'minlangan aholi duch keladigan noyob ehtiyojlar va muammolarni tushunish orqali moliyaviy inklyuziyani rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ushbu guruhlarning xulq-atvori afzalliklarini qondirish uchun moslash orqali, alternativ moliyaviy tizimlar ularning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishi mumkin.

Ikkinchidan, risklarni boshqarishni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lgan strategiyalardan biri hisoblanib, alternativ moliyaviy tizimlardagi investorlar an'anaviy bozorlarga nisbatan har xil turdagi xatarlarga duch kelishi mumkin. Xulq-atvorni moliyalashtirish haddan tashqari tavakkal qilish yoki riskdan voz kechishga olib kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarning noto'g'riligini aniqlashga yordam beradi, bu esa risklarni boshqarish usullarini yaxshilash va investorlarni himoya qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Uchinchi strategiya normativ va siyosat asoslariga ta'sir qilish hisoblanib, bunda alternativ moliyaviy tizimlarning xulq-atvor jihatlarni tushunish siyosatchilar va tartibga soluvchilarni potentsial tuzoqlar va imkoniyatlar haqida xabardor qilishi mumkin. Bu orqali innovatsiyalar va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni muvozanatlashtiradigan tegishli qoidalarni ishlab chiqishga rahbarlik qilishi mumkin.

Moliyaviy ta'limni takomillashtirish: Xulq-atvorni moliyalashtirish muqobil moliyaviy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan moliyaviy ta'lim dasturlarini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu ta'lim investorlarga ko'proq ongli qarorlar qabul qilishda yordam beradi va umumiy xulq-atvor tuzoqlaridan qochishga yordam beradi.

Umuman olganda, xulq-atvor moliyasi muqobil moliyaviy tizimlar uchun qimmatli istiqbolni taqdim etadi, bu bizning investorlarning xatti-harakatlari, bozor dinamikasi va risklarni boshqarish haqidagi tushunchamizni oshiradi. Xulq-atvor moliyasi haqidagi tushunchalarni o'z ichiga olgan holda, ushbu tizimlardagi manfaatdor tomonlar yanada mustahkamroq va foydalanuvchiga yo'naltirilgan moliyaviy echimlarni yaratishi mumkin, bu esa ko'proq moliyaviy inklyuziya va barqarorlikni ta'minlaydi.

XULOSA

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan song, moliyaviy dunyo an'anaviy moliya tizimidagi bir qator zaifliklar va noaniqliklarga duch keldi. Bu mavjud moliyaviy paradigmalarni chuqur qayta baholash zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada aniqlangan og'riqli nuqtalarini yumshata oladigan muqobil sxemalar o'rganildi. Bunday ikkita



yondashuv, islom moliyasi va xulq-atvor moliyasi, bu muammolarni turli xil, ammo bir-birini to'ldiruvchi usullar bilan hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan qiziqarli yo'nalishlarga aylandi.

Islom huquqshunosligidan (shariat) olingan tamoyillarga asoslangan islom moliyasi axloqiy xatti-harakatlar, xatarlarni taqsimlash va ta'qiqlangan foizlardan qochish (ribo) asosida ishlaydi. Ushbu yondashuv haddan tashqari xavf va spekulyativ xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan axloqiy va barqaror moliyaviy amaliyotni talab qilish bilan mos keladi. Real aktivlarni ta'minlash, xatarlarni taqsimlash va boylikni adolatli taqsimlashga katta e'tibor qaratgan holda, moliya tizimida barqarorlikni ta'minlash uchun samarali yo'lni taklif etadi.

Shu bilan birga, xulq-atvor moliyasi moliya tizimidagi muammolarga boshqa shakldagi qo'shimcha yechim olib keladi. U odamlarning moliyaviy qarorlari va bozor dinamikasiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni o'rganadi. Odamlarning xulq-atvori ko'pincha an'anaviy moliyaviy nazariyaning oqilona taxminlaridan chetga chiqishini tan olgan holda, xulq-atvor moliyasi bozor anomalialari, olamon xatti-harakatlar va kognitiv tarafkashlik kabi hodisalar haqida tushuncha beradi. Shuningdek xulq-atvor moliyasi insonlar moliyaviy qaror qabul qilishda shaxsiy qarashlari ayniqsa e'tiqodiy yondashuvlariga asoslanishini e'tiborga oladi. Ushbu g'oyalarni moliyaviy tizimga integratsiya qilish risklarni yanada aniqroq tushunishga olib kelishi mumkin. Shu bilan tizimli inqirozlar ehtimolini kamaytiradi.

Islom moliyasi va xulq-atvor moliyasining yaqinlashuvi inqirozdan keyingi og'riqli nuqtalarini hal qilishning yangi istiqbolini taklif etadi. Ushbu ikki omilni birlashtirib, moliyaviy tizimlar yanada mustahkam axloqiy asosga ega bo'lishi va inson xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishi mumkin.

Ushbu muqobil moliyaviy tizimlarning global moliyaviy arxitekturasini o'zgartirish imkoniyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Mazkur yondashuvlar rivojlanishda davom etar ekan, ularning asosiy moliyaviy amaliyotlarga qo'shilishi foydalanilmayotgan moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga samarali yo'naltirish, xatarlarni boshqarish tizimlarini mustahkamlash va global miqyosda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chapra, M. U. (2009). The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help Minimise the Severity and Frequency of Such a Crisis in Future. *ICR Journal*, 1(2), 226–245. <https://doi.org/10.52282/icr.v1i2.745>.
2. Gira, J., & Labidi, C. (2021). Banks, Funds, and risks in islamic finance: Literature & future research avenues. *Finance Research Letters*, 41, 101815. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101815>
3. Barberis, N., & Thaler, R. (2003). A survey of behavioral finance. *Handbook of the Economics of Finance*, 1, 1053–1128.
4. Hirshleifer, D. (2015). Behavioral finance. *Annual Review of Financial Economics*, 7, 133–159.
5. Ritter, J. R. (2003). Behavioral finance. *Pacific-Basin finance journal*, 11(4), 429–437.
6. Statman, M. (2008). What is behavioral finance. *Handbook of finance*, 2(9), 79–84.
7. <https://www2.deloitte.com/lu/en/pages/islamic-finance/articles/principles-islamic-finance.html>.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

